



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	



ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALARNI VA ULARNING OILALARINI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING NORMATIV-HUQUQIY VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo'ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy jihatdan xavfli vaziyatda bo'lgan hamda xavf ostidagi bolalar va ularning oilalarini ijtimoiy-psixologik hamda normativ-huquqiy jihatdan himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Bugungi globallashuv davrida bolalar huquqlarini ta'minlash va ularni zo'ravonlikning barcha shakllaridan asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarining ushbu sohadagi o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvida (reintegratsiya) etnopsixologik stereotiplar, ijtimoiy stigma va kamsitishlarning salbiy ta'siri hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning nazariyalari asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: bolalar huquqlari, zo'ravonlikdan himoya qilish, normativ-huquqiy asoslar, ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya, reintegratsiya, etnopsixologik stereotiplar, stigmatizatsiya, oilaviy muhit.

Abstract: This article analyzes the issues of socio-psychological and regulatory-legal protection of children who are victims of violence, who are in socially dangerous situations, or who are at risk, as well as their families. In today's era of globalization, ensuring children's rights and protecting them from all forms of violence are priorities of state policy. The article highlights the role and significance of legislative acts, Presidential decrees, and government resolutions adopted in the Republic of Uzbekistan in recent years. Furthermore, based on the theories of foreign and domestic scholars, it examines the negative impact of ethnopsychological stereotypes, social stigma, and discrimination on the reintegration of socially vulnerable children into society, alongside the scientific and practical basis for overcoming these challenges.

Key words: children's rights, protection from violence, regulatory-legal framework, socio-psychological rehabilitation, reintegration, ethnopsychological stereotypes, stigmatization, family environment.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы социально-психологической и нормативно-правовой защиты детей, пострадавших от насилия, находящихся в социально опасном положении или в зоне риска, а также их семей. В современную эпоху глобализации обеспечение прав детей и их защита от всех форм насилия являются приоритетным направлением государственной политики. В статье освещены роль и значение законодательных актов, указов Президента и постановлений Правительства Республики Узбекистан, принятых в этой сфере за последние годы. Также на основе теорий зарубежных и отечественных ученых исследуется негативное влияние этнопсихологических стереотипов, социальной стигматизации и дискриминации на реинтеграцию социально уязвимых детей в общество, а также научно-практические основы их преодоления.

Ключевые слова: права детей, защита от насилия, нормативно-правовая база, социально-психологическая реабилитация, реинтеграция, этнопсихологические стереотипы, стигматизация, семейная среда.

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida bolalar huquqlarini himoya qilish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning psixologik salomatligini va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning psixik rivojlanishiga, ularning o'zini anglashiga hamda ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, zo'ravonlikdan

jabrlangan, o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan hamda ijtimoiy jihatdan xavfli vaziyatda yashayotgan bolalarda jamiyatdagi stereotipik qarashlar, etnik-madaniy munosabatlar va ijtimoiy stigmatizatsiya holatlari ularning ruhiy holati hamda keyingi hayot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, psixologik yordam tizimini takomillashtirish va jamiyatga moslashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni kompleks himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish va ularga sifatli ijtimoiy yordam ko'rsatish, etnopsixologik stereotiplarning davlat, jamiyat, mahalla va oila darajasidagi ta'sirini tahlil qilgan holda ularning jamiyatga reintegratsiyasini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan ^[1].

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrda PF-256-son¹ "2026-2030-yil-larga mo'ljallangan bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish va ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida Global alyans"ga qo'shilishi hamda PF-256 asosida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 9-fevraldagi VM-48-son² "Zo'rvonlikdan jabrlangan, o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan va ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan bolalar hamda ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori har bir bola uchun individual himoya rejalari, kompleks rehabilitatsiya va xavfsiz muhit yaratishni ko'zda tutadi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son³ qarori ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni joylash-tirish shakllarini tartibga solish orqali ushbu tizimni to'ldiradi hamda oilaviy tarbiya va ijtimoiy integratsiyaning ustuvorligini belgilaydi.

2024-yil 31-mayda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 996-sonli⁴ "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi 51 moddadan iborat Qonuni, 2025-yil 14-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 440-sonli⁵ qarori "Bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatini aniqlash, zo'rvonlik xavf darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2026-yil 15-yanvardagi 22-son buyrug'i asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi "Bolalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i bolalarni zo'rvonlikdan himoya qiluvchi va zo'rvonlikka uchragan bolalarni jamiyatga reintegratsiyasini ta'minlovchi tashkilotga aylandi.

Shu bilan birga, respublika hududida joylashgan barcha viloyatlarda bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish va ularni jamiyatga reintegratsiyasini tashkil etish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligining buyrug'i asosida dastlab Qashqadaryo, Xorazm, Navoiy viloyatlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga etnopsixologik stereotiplarning ta'sirini bartaraf etish va ularning jamiyatga reintegratsiyasini ta'minlash maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligining 21-son buyrug'i qabul qilinib, "Bolalarni jamiyatga reintegratsiyasini ta'minlovchi "Kichik hajmli ijtimoiy ko'mak markazlari" tashkil etildi. Shuningdek, bolalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bolalarning psixologik rehabilitatsiyasi, psixopedagogik va psixosijtimoiy reintegratsiyasi jarayonida etnopsixologik stereotiplarning ta'sirini kompleks o'rganish zarurati ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, oilaviy zo'rvonlikning oldini olish, zo'rvonlikka uchragan oilalarni rehabilitatsiya qilish hamda oilalarda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar bilan ham belgilanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel ^[2] kuni umumxalq referendumida qabul qilinib, unda oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan. Bu esa oila va oilaviy munosabatlar tizimi davlat uchun muhim ekanligini anglatadi.

Shuningdek, 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O'RBQ-561-son⁶ ^[3] "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun oiladagi zo'rvonlikning oldini olish va oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, psixologik farovonlikni ta'minlash, zo'rvonlikka uchragan oilalarga yordam ko'rsatishning muhim huquqiy funksiyalarini belgilab berdi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7938806>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-8045207?ONDATE=12.02.2026%2000>

3 <https://lex.uz/docs/7283077>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-7219502?ONDATE=15.05.2025>

5 <https://lex.uz/docs/7648472>

6 <https://lex.uz/docs/-4494709?ONDATE2=12.04.2023&action=compare>



2024-yil 21-oktyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-978-sonli⁷ [4] Qonun oila ichidagi disfunktsional munosabatlarni aniqlash va ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan korreksiyalash zaruriyatini belgilaydi. 2022-yil 7-martdagi PF-87-son⁸ [5] “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda ham bu masalalar o‘z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda psixologik xizmatlar faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda zo‘ravonlikka uchragan oilalarni jamiyatga reintegratsiyasini ta‘minlash davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2026-yil 3-martdagi PF–33-sonli⁹ [6] “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi Farmonda oilalarda sog‘lom ma‘naviy-axloqiy va psixologik muhitni qaror toptirish, oilaviy munosabatlar barqarorligini ta‘minlash, ota-onalarning mas‘uliyatini oshirish hamda oiladagi zo‘ravonlik holatlarining oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning samarali amalga oshirilishi oiladagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etishni talab etadi. Biroq, hozirgi kunda zo‘ravonlik kuzatilgan oilalarning psixologik portreti, oilaviy munosabatlar tizimi, tarbiya uslublari, emotsional aloqalar, kommunikativ xususiyatlar hamda ijtimoiy omillarining o‘zaro bog‘liqligi yetarlicha o‘rganilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zo‘ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini himoya qilish masalasi xalqaro hamda milliy miqyosda keng o‘rganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda David Finkelhor bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari, tarqalish omillari va oqibatlarini ilmiy asoslab bergan. John Bowlbyning bog‘lanish nazariyasi hamda Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi bolalar xavfsizligini ta‘minlashda oila va ijtimoiy muhitning muhim rolini ko‘rsatadi.

Normativ-huquqiy jihatdan bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy xalqaro hujjati United Nations tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya hisoblanadi. O‘zbekistonda esa mazkur yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida hamda Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka uchragan bolalar va ularning oilalarini samarali himoya qilish faqat huquqiy choralar bilan cheklanmay, balki psixologik yordam, ijtimoiy rehabilitatsiya, profilaktika hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini taqozo etadigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarning integratsiyasini takomillashtirish masalasi ilmiy tadqiqotlarda dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zo‘ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo‘ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy hamda ijtimoiy-psixologik asoslarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompleks va fanlararo yondashuv tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar tahlili metodi orqali O‘zbekiston Respublikasining bolalar huquqlarini himoya qilish, oilani qo‘llab-quvvatlash va zo‘ravonlikning oldini olishga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari, shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi hamda boshqa xalqaro standartlar o‘rganildi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, analiz va sintez, induktiv hamda deduktiv yondashuv metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar orqali zo‘ravonlikka uchragan bolalarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari, ijtimoiy xizmatlar tizimi hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash amaliyoti o‘zaro bog‘liqlikda baholandi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida zo‘ravonlikning bola va oila psixologik holatiga ta‘siri, rehabilitatsiya hamda reintegratsiya jarayonlarining samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida amaldagi tizimning ustun va muammoli jihatlari aniqlanib, uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

7 <https://lex.uz/uz/docs/-7165389>

8 <https://lex.uz/uz/docs/-5899498?ONDATE=01.01.2026>

9 <https://lex.uz/uz/docs/-8070193>

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ko'pincha jamiyatda mavjud stereotipik qarashlar tufayli ijtimoiy cheklanish, stigmatizatsiya, ijtimoiy jihatdan rad etilish, diskriminatsiya, emotsional izolyatsiya va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kabi psixologik muammolarga duch keladi. Ayniqsa etnopsixologik stereotiplar bolaning o'z "Men" konsepsiyasi, ijtimoiy identifikatsiyasi va kommunikativ moslashuviga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Bu esa ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi jarayonini murakkablashtiradi.

Tadqiqot muammosining ilmiy o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan stereotiplar, etnopsixologik munosabatlar, stigma, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi masalalari turli jihatlarida o'rganilgan. Jumladan, ijtimoiy stereotiplar va stigmatizatsiya fenomenlari G.Allport, V.Lippman, E.Goffman, A.Tajfel, G.Mead[7] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, guruhlararo munosabatlar va stereotiplarning psixologik mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar ijtimoiy psixologiya doirasida keng yoritilgan. MDH olimlari tomonidan bolalar reabilitatsiyasi, Qizil xoch tashkiloti tomonidan bolalarni ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan harakatlari, deviant xulq, psixologik himoya va ijtimoiy moslashuv masalalari tahlil qilingan. O'zbek psixolog olimlari tomonidan esa yoshlar psixologiyasi, oilaviy muhit, ijtimoiy moslashuv, etnopsixologik qadriyatlar va tarbiya masalalari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga nisbatan etnopsixologik stereotiplarning ta'siri hamda ularning jamiyatga reintegratsiyasi muammosi kompleks psixologik tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa zo'ravonlikka uchragan, xavf ostidagi va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning psixologik moslashuvi jarayonida etnik-madaniy stereotiplarning o'rni va ta'sir qilish usullarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda zo'ravonlik fenomeni dastlab V.Lippmann tomonidan stereotiplar nazariyasi orqali ijtimoiy ongda tasavvurlar bilan bog'liq holda yoritilgan. Keyinchalik G.Allport zo'ravonlik va kamsitishning ijtimoiy ildizlarini shaxslararo va guruhlararo munosabatlar doirasida tahlil qilib, stigmatizatsiya va ijtimoiy masofa tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan. E.Goffman esa stigmatizatsiyani ijtimoiy identifikatsiya jarayonining buzilishi sifatida ko'rib, zo'ravonlik qurbonlarining jamiyatga moslashuvida yuzaga keladigan psixologik to'siqlarni asoslab bergan.

A.Tajfel va J.Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi esa guruhlararo munosabatlar, "biz va ular" fenomeni hamda stereotiplarning shakllanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. G.Meadning "ijtimoiy o'zlik" konsepsiyasi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhit va ijtimoiy rollarning ahamiyatini ochib beradi.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteynlarning faoliyat va rivojlanish nazariyalari bolalarning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini asoslab bergan. Shuningdek, bolalar psixologiyasi va deviant xulq muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda zo'ravonlikning shaxs rivojiga salbiy ta'siri, emotsional travma va ijtimoiy moslashuvdagi buzilishlar keng yoritilgan.

O'zbekiston psixologiya va pedagogika fanida ham bolalar huquqlarini himoya qilish, oilaviy muhitning tarbiyaviy ahamiyati, etnopsixologik qadriyatlar va ijtimoiy moslashuv masalalari bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy muhitning o'rni alohida ta'kidlanadi.

Huquqiy adabiyotlarda esa bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ asoslari xalqaro va milliy darajada o'rganilgan. BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" bolalarni har qanday zo'ravonlik shakllaridan himoya qilishning asosiy xalqaro huquqiy bazasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda bolalarni ijtimoiy himoya qilishga oid qator farmon va qarorlar milliy huquqiy tizimda bolalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muhim hujjatlar sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar va davlat dasturlarida zo'ravonlikning oldini olish, erta aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish hamda reabilitatsiya va reintegratsiya tizimini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar va ularning oilalari bilan ishlashda kompleks ijtimoiy-psixologik va huquqiy yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka uchragan bolalar va ularning oilalarini himoya qilish masalasi ko'p jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro integratsiyasi, ayniqsa reintegratsiya jarayonida ularning kompleks ta'siri yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.



Ushbu tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi globalashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida zo'ravonlikka uchragan bolalar va ularning oilalarini himoya qilish, ularning psixologik salomatligini ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda, xususan, 2024-2026-yillar davomida bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish va ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida mutlaqo yangi, tizimli normativ-huquqiy baza yaratildi. Xususan, sohaga oid qonunlar, Prezident farmonlari hamda hukumat qarorlari asosida har bir bola uchun individual himoya rejalarini ishlab chiqish, kompleks reabilitatsiya qilish va xavfsiz muhit yaratish tizimi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan "Kichik hajmli ijtimoiy ko'mak markazlari" va "Bolalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya markazi" kabi tuzilmalar jabrlangan bolalarni jamiyatga reintegratsiya qilishda muhim amaliy platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Biroq, zo'ravonlikka uchragan yoki ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi bolalar bilan ishlashda faqatgina huquqiy mexanizmlar bilan cheklanish yetarli emas. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ularning oilalari ko'pincha jamiyatda mavjud stereotipik qarashlar tufayli ijtimoiy cheklanish, kamsitish (stigmatizatsiya) va emosional izolyatsiya kabi jiddiy psixologik muammolarga duch kelishadi. Ayniqsa, etnik-madaniy va etnopsixologik stereotiplar bolaning o'z "Men" konsepsiyasi shakllanishiga, ijtimoiy identifikatsiyasiga va kommunikativ moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning qayta integratsiyalashuvi jarayonini murakkablashtiradi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari ham zo'ravonlik qurbonlarining jamiyatga moslashuvida ijtimoiy muhit va guruhlarga munosabatlarning o'zni hal qiluvchi ekanligini asoslab beradi.

Zo'ravonlikka uchragan bolalar va ularning oilalarini himoya qilish hamda reabilitatsiya samaradorligini oshirish uchun huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro integratsiyasini yanada chuqurlashtirish zarur. Kelgusida individual himoya rejalarini tuzishda hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olish, jamiyat hamda mahalla darajasidagi stereotipik qarashlarni tizimli ijtimoiy-psixologik tushuntirish ishlari orqali bartaraf etish lozim. Shuningdek, oilalardagi disfunktsional munosabatlarni barvaqt aniqlash hamda o'zbek milliy mentaliteti kontekstida zo'ravonlik kuzatilgan oilalarning aniq psixologik portreti va tarbiya uslublarini chuqurroq empirik tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
3. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-561. 02.09.2019
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 21.10.2024 yildagi O'RQ-978-son
5. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.03.2026 yildagi PF-33-son
7. Mead G. H. Mind, Self and Society. University of Chicago Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.